
**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

**ХОРАЗМ МАЪМУН
АКАДЕМИЯСИ
АХБОРОТНОМАСИ**

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт, филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

2020-5/2

**Вестник Хорезмской академии Маъмуна
Издается с 2006 года**

Хр

1/128

| | |
|--|-----|
| Saparova N.E., Narzullayev L.A. The role of interactive methods of teaching in english lessons | 87 |
| Sarimsakova D.M. The formation of communicative competence of future english teachers on the basis of socio-cultural competence | 89 |
| Shomurotova B.O' . Tibbiyotda atamalarning sinonimlari va ularni turlarga bo'linishi | 91 |
| Sultanova M.Sh. The role of distance learning in foreign languages | 93 |
| Suyarova Sh.T. Pragmalinguistic aspects of language competence in the study of foreign language at agrarian university | 95 |
| Suyarova Z.Sh. Ways of increase of motivation of students to learn a foreign language | 97 |
| Timirov A.M. Using information technologies in the learning foreign language | 99 |
| To'xtayeva F.I. Til tejamkorligi tushunchasining bevosita va bilvosita jarayonlar orqali o'rganish | 101 |
| Umarova L.N., Abdvohidova X.M. The main direction and issues of translation | 103 |
| Yoqubjonova D.U. Phonation is a paralinguistic tool of biological of origin in the english and the uzbek languages | 106 |
| Жалилова Л.Ж. Имплементация сатиры в современных американских жанрах | 108 |
| Каримова З.Ф. Ўзбек ва инглиз тилларида баъзи сўз-гапларнинг ишлатилиши | 110 |
| Каримова М.Ж. Қишлоқ хўжалиги терминларига оид инглизча-ўзбекча лугат тузиш хақида айрим мулоҳазалар | 113 |
| Маматкулова Ш.Ж. Методы активного обучения на уроках английского языка | 115 |
| Рахимова Ш.А. “Давлатёрбек” достони туркман версияси бадииятининг типологик хусусиятлари | 117 |
| Тилова Г.А. Немис ва ўзбек тилларида ўрмончилик терминларининг ясалиш усуллари | 121 |
| Умарбекова Г.А. Значение лексической работы на современном этапе преподавания русского языка как иностранного в неязыковом вузе | 124 |
| Хасанова Ю.М. Трансформация усвоенных знаний иностранного языка в процессе глобализации | 126 |

information technology. Along with the listed problems of computerization of education, there are other equally important ones. These include: information culture of teachers; readiness of teachers to use information technology in training; technical equipment of universities and schools, etc. Thus, it is already obvious that the pace of development of computer technology is clearly ahead of research and consideration of problems associated with its operation. Most experts are of the opinion that the computer carrying out certain functions of training, cannot totally replace a teacher for a number of reasons, chief among which are the following: the computer can't be fully imitated those aspects of activity of the teacher that are related to their educational functions; the aim of education is development of communicative abilities, computer cannot replace human interaction and to understand the mystery of human thought.

At the present stage, the most constructive approach seems to be that the computer should not be opposed to the teacher, but it is advisable to consider it as a means of supporting the professional activity of the teacher.

REFERENCES:

1. Malbis E.I. Psihologo-pedagogical problems of computerization of education. - M., Enlightenment, 2006.
2. Polat E.S., Bukharkina M.Y., Moiseeva M.V. Petrov A.E. New pedagogical and information technologies in the education system. - M., Academy, 2000.

O'UK 808.3

TIL TEJAMKORLIGI TUSHUNCHASINING BEVOSITA VA BILVOSITA JARAYONLAR ORQALI O'RGANISH

((Strict) (Sloppy) jarayonlar)

F.I. To'xtayeva, o'qituvchi, BuxDU, Buxoro

Annotatsiya. Ushbu maqolada ba'zi so'zlar va so'z birikmalari o'rinda kelgan elementlarning differensial sintaktik-semantik belgilarini aniqlashda funkcion va komponent modellarga tayangan holda ish olib boriladi.

Kalit so'zlar: til tejamkorligi, sintaktik va semantik belgilar, gap, kesim.

Аннотация. В данной статье проводится работа, опирающаяся на функциональные и компонентные модели, по определению дифференциальных синтаксико-смысловых признаков элементов, пришедших на место некоторых слов и словосочетаний.

Ключевые слова: языковая экономия, синтаксические и смысловые признаки, слог, сечение.

Abstract. In this article, work is carried out based on the functional and component models in determining the differential syntactic-semantic signs of the elements that come in place of certain words and word combinations.

Keywords: language-saving, syntactic and semantic characters, sentence, cross-section

Gapdagi elementlarni sintaksemlarga ajratib tahlil qilish har bir elementning u yoki bu o'rinda sintaktik qatlamdagi semantik maydonini aniqlashda namoyon bo'ladi. Masalan, muayyan element har ikkala tilda turlicha komponentli gaplarda turli o'rinlarda kelib, har xil semantik maydonga ega bo'lishi mumkin. Dastlabki o'rinda moslashuv nazariyasining lisoniy modellashuvi ong va til tizimi o'rtasidagi hamkorlikning mahsuli ekanligini unutmash kerak. Oldin aytilganidek, moslashuv nazariyasi shakllanishining boshlang'ich nuqtasi voqelik bo'lagi (predmet) haqidagi tasavvur – obrazning yuzaga kelishidir. Bu obraz oddiy sxema yoki shakl bo'lib qolmasdan balki mazmunli hodisadir. Boshqacha aytganda, sub'yekt obrazning oddiy shaklini ko'rmaydi yoki uning mazmunini idrok qilmaydi, u mazmunli obrazni idrok etadi. Xuddi shu mazmunli obraz lisoniy belgiga aylanadi va bu belgi ma'nosining o'zagini tashkil qiladi. Lekin voqelik – ong – lisoniy belgi o'rtasidagi bunday uzviylikni oddiy takrorlash ko'rinishida talqin etmaslik kerak. Chunki ong voqelikni lisoniy belgi vositasida oddiygina aks ettirmaydi, balki sub'yekt uchun muhim bo'lgan belgi – xususiyatlarini ajratadi hamda ular asosida idrok etilayotgan ob'yekt (predmet, hodisa) ning namunaviy modelini yaratadi. Ongning bu turdagi analitik – tahliliy faoliyati amalga oshishida lisoniy belgilarning roli alohida e'tiborga loyiq. Moslashuv nazariyasining lisoniy modellashuv jarayoni yana bir muhim mental bosqichni bosib o'tadi. Voqelikning tafakkurdagi umumlashgan in'ikosi – obrazning mantiqiy "qayta ishlanishi" natijasida hosil bo'lgan moslashuv nazariyasi lisoniy "libos" olishdan oldin ushbu "libos" ning tasavvurdagi aksi – model yuzaga keladi. Lisoniy voqelanish rejasi paydo bo'lgan zahotiyoyq uni amalga oshirish uslubi izlanadi. Reja hamda "so'zsiz" model nolisoniy "nutq" jarayonida yuzaga keladi. Botiniy

nutqning yuzaga kelish muammosi bilan shug'ullangan psixolog va psixolingvistlar ushbu hodisani turlicha talqin qilib kelishmoqda. Ulardan ayrimlari botiniy nutqni oddiygina qilib, o'z-o'ziga gapirish bilan tenglashtirsalar, boshqalari uni alohida tashqi (zohiriy) nutqdan butunlay farq qiluvchi hodisa sifatida ta'riflaydilar. Biroq, eng muhimi, botiniy nutq zohiriy nutqning asosini, negizini tashkil qilishini olimlar e'tirof etib kelishmoqda. Darhaqiqat, nutqiy faoliyat ijro (talaffuz) va eshitish (mazmun, idrok) bosqichlaridan tashqari yana bir bosqichni o'z ichiga oladi.

Bu tashqi yoki zohiriy nutqni rejalashtirish bilan bog'liq yashirin jarayondir. Moslashuv nazariyasining lisoniy voqelanish jarayoni uning tabiati va uni harakatga keltiruvchi mexanizmlar haqida gapirayotib, N. Xomskiyning nutqiy faoliyat va lisoniy ijodni ta'minlovchi botiniy va zohiriy strukturalari haqidagi fikrini yana bir karra eslamaslikning iloji yo'q. Ushbu g'oya botiniy strukturaning zohiriy tuzilmaga o'tishini faqatgina formal jihatdan tahlil qilinishiga yo'l qo'yilganligi va natijada shakl mazmun (semantika) dan ustun bo'lib qolganligi ayblovi bilan uzluksiz tanqidga uchrab qolayotganiga qaramasdan, kognitiv tilshinoslik uchun ancha muhimdir. Matnlar tipologiyasida axborotni uzatish kanali alohida o'rin tutadi. Ana shunga ko'ra matnlarning og'zaki matn va yozma matn tiplarini farqlash lozim. Rus tilshunoslari T.M.Belyayev va V.A.Xomyakovlar so'z doirasida qisqartirishlarni o'rganib, qisqartirishning uch xil ko'rinishi, ya'ni ingliz tilida so'zning birinchi bo'g'ini yoki o'rtadagi bo'g'inini, yoki oxirgi bo'g'inni qoldirish orqali qisqartma sleng ishlatilishini kuzatish mumkinligini aytib o'tishadi. Ularning fikriga ko'ra so'z yasashning yana bir unumli usullaridan biri bu – so'zni o'zini takrorlashdir va bu juda qadimdan tilda qo'llanilib kelgan hodisadir hamda so'z takrorlanib ishlatilganda o'z ma'nosini kuchaytirishi yoki boshqa ma'noga o'tishi mumkin: "bye-bye" – xayr ("bye" - xayr), "jaw-jaw" – suhbat, bekorchi gap ("jaw" – jag'). Takror so'zlar asosan ingliz tili shevalarida kuzatiladi va shular keyinchalik adabiy til standart qoidalariga qo'shilishi mumkin.

Birinchidan, qisqartirish jarayonida so'z turkumlari tejamkorlik tamoyiliga ko'ra tushib qoladi, jim qolishda esa so'z yoki so'zlar guruhining tushirib qoldirilishi tejamkorlikka aloqasiz sodir bo'ladi.

Ikkinchidan, qisqartirish natijasida gap o'zining gaplik maqomini yo'qotmaydi, jim qolish natijasida esa tugallangan gap shakllanmaydi.

Uchinchidan esa, qisqartirishda tushib qolgan so'z turkumlarni kontekst yoki nutq vaziyatiga ko'ra tiklash mumkin, jim qolishda aytilmagan qismni tasavvur qilish mumkin bo'lsa-da, aynan tiklash qiyin.

Mazkur farqlarga ko'ra, qisqarish va jim qolish hodisalari bir-biridan farq qiladi va ular alohida-alohida, mustaqil hodisalar sifatida baholanishi lozim.

Tilshunos G.P.Grays maksimal matn qoidasini alohida ajratib uni inson kommunikatsiyasi omadi kaliti deb ta'riflaydi. Uning fikricha maksimal matn to'rt kategoriyadan iborat bo'lib (sifat, miqdor, munosabat va uslub) shulardan miqdor tushunchasiga ta'rif berib uni "nutqdagi ekspressivlikka erishish uchun so'zlovchi faqat kerakli informatsiyasiga berishi kerak" deb tillardagi implikativ (tilning tejamkorlikka bo'lgan moyilligi) va eksplikativ (tilning ortiqcha izoh va tasvirlarga moyilligi) intilishlar borligini namoyon qiladi. Rus tilshunoslari fikrlariga binoan implikatsion nutq ko'proq og'zaki nutqga xos bo'lib til materiallarining tejamkorligini qisqartirish, dialogik nutqdagi oldingi shaxsning fikridan foydalanish va lakonik nutqlarni o'z ichiga oladi. Maksimal matnning ichki tomonini mazmun yaxlitligi, tashqi tomonini esa turli shakldagi bog'lamlar, sintaktik vositalar birlashtirib turadi:

- (23) Mirshod saw his mother, and Oybek did too.
- (24) a. Mirshod saw Mirshod's mother, and Oybek saw Oybek's mother. (*sloppy*)
b. Mirshod saw Mirshod's mother, and Oybek saw Mirshod's mother. (*strict*)
- c. Mirshod said Mirshod saw Mirshod's mother and Oybek said Mirshod saw Mirshod's mother. (*across-the-board strict*)
- d. Mirshod said Mirshod saw Mirshod's mother and Oybek said Oybek saw Mirshod's mother. (*sloppy-strict*)
- e. *Mirshod said Mirshod saw Mirshod's mother and Oybek said Mirshod saw Oybek's mother. (*strict-sloppy*)

Yuqorida berilgan takroriylikni ifodalovchi atoqli ot birikmalarining semantik tasnifidan kelib chiqib aytish mumkinki, bu til birikmalariga bo'lgan umumiy xususiyat ularning shakllarini semantik (jonli va jonsiz, qiyoslash, o'xshatish, holat) qayta o'zgartirib yuborishi va alohida ko'chma ma'no hosil qilishidir. Ko'pchilik tadqiqotchilar, asosan, frazeologik xarakterdagi qiyosiy qurilmalarga diqqat-e'tiborni qaratadilar. Shuni ta'kidlash joizki, ingliz tilida takrorlash jarayonni so'ndirish keng tarqalganligi va kam qo'llanishiga qaramasdan moslashuv gipotezasining xususiyatlari hozirgacha yetarli darajada o'rganilmagan. Bu esa axborotni talab qiladi. Finlandiyalik mantiqshunos

olim E.Saarinenning fikricha, tarkibida propozitsional ustanovkani ifodalagan kontekstlar quyidagi 3 ta muammo bilan bog'langan. 1) "kvantifikatsiya"(ya'ni gapning umumiy mazmun hajmi) yoki propozitsional ustanovkalar muammosi: gapning qanday ma'no yoki semantikasini kontekstlar kvantifikatsiyasi o'z ma'nosini propozitsional ustanovkalarda saqlaydi; 2) turg'un designatorlar (atoqli ot, ko'rsatish olmoshlari, indikatorlar) deb ataladiganlar, ehtimol, ular propozitsional ustanovkalarining kontekstlarida doimo ishlatilmasligi mumkin. Olimning nazarida ustanovkali kontekstlarda yurg'un atamalarni almashtirish mumkin emas. 3) hamma narsani mantiqiy bilish muammosidir.

Tejamkorlik tamoyili shuningdek Chomskiyning minimalistik programmasi negizida ham ko'rilishi mumkin. Ushbu vaziyatda kontekstual matndagi jumlar tuzilishi o'zaro bog'liqlik asosida birlashib morfologik jihatdan ayrim so'zlarning qisqarishiga olib keladi. Fiengo va Meylar ushbu so'z rekonstruksiyasi holatini bevosita va bilvosita jarayonlar orqali qarashni taklif etib ularni lotincha β -hodisalar ya'ni kontekstual betta hodisalar deb atashadi. Ammo bunday nuqtai nazarda so'zning kelib chiqishiga ko'proq urg'u berilib, uning matnning umumiy tarkibiy tuzilishiga qanday ta'sir etishi ikkilamchi xarakterga ega bo'lib qoladi. Ushbu vaziyatga sharh beradigan bo'lsak, bevosita va bilvosita jarayonlar matn o'qilishidagi turli o'rinlarida ot kesimning tushirib qoldirilishi derivatsiyasi ularning matnda namoyon bo'ladigan ko'rastirish vositalari yordamida ifodalangan. Tilimizda shunday elementlar ham mavjudki, ular biror sintaktik vazifani bajaray so'zlovchining o'zi bayon etayotgan fikrga, yoxud o'sha fikrning ifoda etilishi usuliga bo'lgan munosabatni bildiradi. Bunday munosabat tasdiq, umid, ishonch, gumon, taxmin, shodlik, taajjub va hokazo ma'nolarni anglatib, bayon qilinayotgan fikr tartibini, mazkur fikrning oldingi mulohaza bilan bog'liqligini ifodalaydi. Bular modal so'zlar bo'lib, gapning biror bo'lagiga yoki butun gapga taalluqli holda kirish so'z mavqeida kelishi bilan sintaktik va nihoyat, fikrga aniqlik kiritishi, tasdiq, taxmin, tartib turlicha emotsional munosabatlarni ifodalashi bilan semantik belgilarga ega bo'la oladi. Kirish so'z va kirish birikmalar gapning umumiy strukturasi kengaytirib, uning mazmuniga qo'shimcha ma'no berishiga qaramay, an'anaviy grammatikalarda gap bo'laklari qatoriga kiritilmaydi. Bu esa gapni tashkil etuvchi bevosita ishtirokchilarning birini bosh bo'lak, ikkinchisini ikkinchi darajali bo'lak deb, boshqasini nomsiz qoldirib, hech qanday bo'lak qatoriga qo'shmaslik masala mohiyatini nihoyatda chigallashtirib yubormoqda. Bunday vaziyatga ko'pchilik olimlarimiz ko'nikib ketishgan bo'lsalar-da, so'nggi yillarda ba'zi tilshunolar bu haqda o'zlarining e'tirozli fikrlarini bildirmoqdalar. Masalan, A.R.Sayfullayev o'zining ilmiy izlanishlarida modal so'z va modal birikmalar gapning uchinchi darajali bo'laklari ekanligini va ular semantik vazifalaridan tashqari sintaktik vazifa bajarishi mumkinligini ilmiy jihatdan asoslab berdi. A. R. Sayfullayevning fikricha, kirish so'z va kirish birikmalar ko'pincha gapning kesimi vazifasida kelgan so'z bilan sintaktik munosabatda bo'lib, ular bilan boshqaruv, bitishuv usullari orqali bog'lanadi. Lekin shunga qaramay, bu o'rinda ham muammo yechimi to'liq hal qilinganligini e'tirof etishimiz qiyin ko'rinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Berwick, B., Weinberg, A. *The Grammatical Basis of Linguistic Performance*. Cambridge, Mass.: MIT Press. – 1984. 325p.
2. Carlson, Katy. *Parallelism and Prosody in the Processing of Linguistic economy concept Sentences*. Doc.Diss. University of Massachusetts, Amherst. – 2001. 38p.
3. Chao, W. *On Linguistic economy concept*. Doctoral Dissertation, University of Massachusetts, Amherst. 1987. –22p
4. Chomsky, N. A Minimalist program for Linguistic Theory. In *The View Form Building 20: Essays in Linguistics in Honor of Sylvain Bromberger*, eds. Kenneth Hale and Samuel Jay Keyser. Cambridge, Mass.: MIT Press. – 1993. 253p
5. Chomsky, N. Categories and transformations. In *The Minimalist Program*. Cambridge, Mass.: MIT Press. – 1995. 340p.
6. Chomsky, N. Minimalist Inquiries: The Framework. In *Step by Step: Essays on Minimalist Syntax in Honor of Howard Lasnik*, eds. Roger Martin, David Michaels, and Juan Uriagereka. -Cambridge: MIT Press. – 2000. 287p.
7. Fiengo, Robert, and Robert C. May. *Indices and Identity*. Cambridge, Mass.: MIT Press. – 1994. 236p.
8. Fodor, J. D. Deterministic Parsing and Subadjacency. *Language and Cognitive Processes* 1. – 1985. 261p.

UDC 808.3

THE MAIN DIRECTION AND ISSUES OF TRANSLATION

L.N. Umarova, teacher, Tashkent State Technical university, Tashkent

X.M. Abduvohidova, master student, National University of Uzbekistan, Tashkent

Annotatsiya. Ushbu maqolada tilshunoslikda matnlarni tarjima qilish jarayonida duch keladigan muammolar, uning asosiy yo'nalishlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: tilshunoslik, tarjima, yo'nalishlar va amaliyot.